

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 8 833,7 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 7,4 % ga o'sdi.


YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 112,3 % ni tashkil qildi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMning shakllanishida Jizzax viloyatining qo'shgan hissasi 2,6 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida Jizzax viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot



- YAHM o'sish sur'ati
- YAHM hajmi
- YAHM deflyator indeksi
- YAIMga qo'shgan hissasi



## 2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari



|                                                        | Mlrd. so'm     |                | O'sish<br>sur'atlari,<br>o'tgan yilning<br>mos davriga<br>nisbatan % da |
|--------------------------------------------------------|----------------|----------------|-------------------------------------------------------------------------|
|                                                        | 2024- yil      | 2025- yil      |                                                                         |
| <b>I. YAHM, jami</b>                                   | <b>7 326,2</b> | <b>8 833,7</b> | <b>107,4</b>                                                            |
| <i>shu jumladan:</i>                                   |                |                |                                                                         |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati              | 7 110,1        | 8 580,8        | 107,2                                                                   |
| mahsulotlarga sof soliqlar                             | 216,1          | 252,9          | 114,4                                                                   |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b>  | <b>7 110,1</b> | <b>8 580,8</b> | <b>107,2</b>                                                            |
| <b>qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b>    | <b>1 807,8</b> | <b>2 125,6</b> | <b>103,4</b>                                                            |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>          | <b>1 988,9</b> | <b>2 554,0</b> | <b>111,8</b>                                                            |
| sanoat                                                 | 1 468,6        | 1 961,5        | 112,0                                                                   |
| qurilish                                               | 520,3          | 592,5          | 111,0                                                                   |
| <b>xizmatlar</b>                                       | <b>3 313,4</b> | <b>3 901,2</b> | <b>106,5</b>                                                            |
| savdo, yashash va<br>ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar | 1 044,1        | 1 248,2        | 111,1                                                                   |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa                | 356,1          | 449,4          | 112,6                                                                   |
| boshqa xizmat tarmoqlari                               | 1 913,2        | 2 203,6        | 102,8                                                                   |

Quyida keltirilgan infografikadan ko'rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 5 732,8 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 5,3 % ga yuqoridir.

**2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi**  
*(ming so'mda)*



**2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o'sish sur'atlari**  
*(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*



## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

|                                                       | 2024- yil    | 2025- yil    |
|-------------------------------------------------------|--------------|--------------|
| <b>I. YAHM, jami</b>                                  | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <i>shu jumladan:</i>                                  |              |              |
| tarmoqlarning yalpi<br>qo'shilgan qiymati             | 97,1         | 97,1         |
| mahsulotlarga sof soliqlar                            | 2,9          | 2,9          |
| <b>II. Tarmoqlarning yalpi<br/>qo'shilgan qiymati</b> | <b>100,0</b> | <b>100,0</b> |
| <b>qishloq, o'rmon<br/>va baliqchilik xo'jaligi</b>   | <b>25,4</b>  | <b>24,8</b>  |
| <b>sanoat<br/>(qurilishni qo'shgan holda)</b>         | <b>28,0</b>  | <b>29,8</b>  |
| sanoat                                                | 20,7         | 22,9         |
| qurilish                                              | 7,3          | 6,9          |
| <b>xizmatlar</b>                                      | <b>46,6</b>  | <b>45,4</b>  |
| savdo, yashash va ovqatlanish<br>bo'yicha xizmatlar   | 14,7         | 14,5         |
| tashish va saqlash,<br>axborot va aloqa               | 5,0          | 5,2          |
| boshqa xizmat tarmoqlari                              | 26,9         | 25,7         |




2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,1 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,9 % ini tashkil etdi.


Hisobot davrida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi 24,8 % ni, sanoat tarmog'i 22,9 % ni, qurilish 6,9 % ni va xizmatlar sohasi 45,4 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

2024- yil



2025- yil




● Yalpi qo'shilgan qiymat

● Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o'sishiga qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'i 0,9 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.), sanoat tarmog'i – 2,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,6 f.p.), qurilish tarmog'i – 0,8 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,8 f.p.) va xizmat ko'rsatish sohasi – 2,9 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 2,5 f.p.) ijobiy hissa qo'shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o'sishi hisobiga YAHM 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,4 f.p.)ga ko'paydi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o'sishida tarmoqlarning hissasi (jamiga nisbatan % da)



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 103,4 % (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi – 24,8 %), sanoatda – 112,0 % (22,9 %), qurilishda – 111,0 % (6,9 %), xizmatlar sohasida – 106,5 % ni (45,4 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o'sish sur'atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 111,1 % (14,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 112,6 % (5,2 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 102,8 % dan (25,7 %) iborat bo'ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)

2024- y.

2025- y.



7,1 %

**YAHM**

7,4 %



3,3 %

**Qishloq, o'rmon  
va baliqchilik xo'jaligi**

3,4 %



11,7 %

**Sanoat**

12,0 %



11,7 %

**Qurilish**

11,0 %



5,8 %


**Xizmatlar**

6,5 %



2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 112,3 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat – 119,2 % va qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining – 113,7 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 5 668,6 mlrd. so'mni tashkil etdi (2024-yilning yanvar-mart oylarida – 4 876,8 mlrd. so'm). YAHMdagi ulushi 66,1 % ni (2024-yilning yanvar-mart oylarida – 68,6 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining ko'payishi bilan bog'liq.

**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va  
YAHMdagi ulushi**  
*(jamiga nisbatan %da)*

Hajmi, mlrd.so'm

Ulushi, % da

2024- yil

4 876,8

68,6 %

2025- yil

5 668,6

66,1 %

